

Bakalavriat bosqichi talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari hamda ularni tayinlash tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari kunduzgi ta'lim shakli talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini tayinlash tartibini belgilaydi.

(1-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrda 840-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2026-y., 09/26/840/0012-son)

Ushbu Nizom Kamoliddin Behzod va Botir Zokirov nomidagi hamda "Oliy Bosh qo'mondon" davlat stipendiyalarini tayinlash tartibiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

(1-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 3-noyabrda 690-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.11.2025-y., 09/25/690/1011-son)

2. Oliy ta'lim muassasalari bakalavriat bosqichi talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari O'zbekiston Respublikasidagi davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, qo'shma ta'lim dasturlarida butun o'qishi davomida faqat a'lo baholarga o'qiyotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan oxirgi kurs talabalariga tayinlanadi va to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyalari har bir oliy ta'lim muassasasining bakalavriat bosqichidagi bir nafar bitiruvchi kurs talabasiga tayinlanadi va to'lanadi.

Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug'bek, Imom al-Buxoriy va Islom Karimov nomli davlat stipendiyalari O'zbekiston Respublikasidagi davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, qo'shma ta'lim dasturlarining oxirgi ikki kursida o'qiyotgan talabalarga tayinlanadi va to'lanadi.

(2-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrda 840-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2026-y., 09/26/840/0012-son)

Bobur nomli davlat stipendiyasi tarix va geografiya yo'nalishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasidagi davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, qo'shma ta'lim dasturlarining oxirgi ikki kursida o'qiyotgan talabalarga tayinlanadi va to'lanadi. Bunda ushbu nomli davlat stipendiyasi soni tarix va geografiya yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari uchun alohida bittadan belgilanadi.

Pahlavon Mahmud nomli davlat stipendiyasi jismoniy madaniyat va sport yo'nalishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasidagi davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, qo'shma ta'lim dasturlarining oxirgi ikki kursida o'qiyotgan talabalarga tayinlanadi va to'lanadi. Bunda ushbu nomli davlat stipendiyasi soni jismoniy madaniyat va sport yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari uchun alohida bittadan belgilanadi.

To'lepbergen Qaipbergenov va Ibroyim Yusupov nomli davlat stipendiyalari Qoraqalpog'iston Respublikasidagi davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, qo'shma ta'lim dasturlarining oxirgi ikki kursida o'qiyotgan talabalarga tayinlanadi va to'lanadi. Bunda ushbu nomli davlat stipendiyalari soni Qoraqalpog'iston Respublikasidagi har bir oliy ta'lim muassasasi uchun To'lepbergen Qaipbergenov va Ibroyim Yusupov nomli davlat stipendiyalari bo'yicha alohida bittadan belgilanadi.

(2-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustda 384-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2023-y., 09/23/384/0613-son)

Abdulla Avloniy nomli davlat stipendiyasi pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, qo'shma ta'lim dasturlarining oxirgi ikki kursida o'qiyotgan

talabalarga tayinlanadi va to'lanadi. Bunda ushbu nomli davlat stipendiyasi soni har bir pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasasi uchun alohida bittadan belgilanadi.

(2-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrda 840-sonli qaroriga asosan yettinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2026-y., 09/26/840/0012-son)

3. Kelgusi o'quv yili uchun Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug'bek, Imom al-Buxoriy, Islom Karimov, Bobur, Pahlavon Mahmud, Abdulla Avloniy, To'lepbergen Qaipbergenov va Ibroyim Yusupov nomli davlat stipendiyalari (keyingi o'rinlarda — nomli davlat stipendiyalari) soni joriy o'quv yili oxirida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi taqdimnomasiga binoan Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Bunda O'zbekiston Respublikasidagi davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari hamda ularning filiallari bo'yicha nomli davlat stipendiyalari soni O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga muvofiq har yili tasdiqlanadigan tanlov yo'nalishlari va talabalar sonidan kelib chiqib taqsimlanadi.

(3-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrda 840-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2026-y., 09/26/840/0012-son)

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarida ishtirok etadigan nomzodlarga (keyingi o'rinlarda — talabgorlar) quyidagi talablar belgilanadi:

(4-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrda 840-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2026-y., 09/26/840/0012-son)

a) nomli davlat stipendiyalari uchun:

a'lo o'qish va ilmiy (ijodiy) ishlarda ishtirok etish;

yo'nalishlar bo'yicha konferensiya (tanlov)larda qatnashish;

O'zbekiston tarixini bilish;

tillarni — davlat tilini va bitta xorijiy tilni bilish (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar davlat tillaridan tashqari), bakalavriatdagi ta'lim yo'nalishi xorijiy til bo'lgan taqdirda esa, qo'shimcha ravishda yana bitta xorijiy tilni bilish talab qilinadi. Bunda talabgorlar ushbu tillar bo'yicha o'z bilimlari darajasini aniqlash uchun o'qish joyidagi til kafedralarida maxsus suhbatdan o'tadilar;

(4-band "a" kichik bandining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrda 840-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2026-y., 09/26/840/0012-son)

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi uchun mazkur bandning "a" kichik bandida belgilangan talablarga qo'shimcha ravishda o'qiyotgan bakalavriat ta'lim yo'nalishiga mos mavzuda kamida ikkita e'lon qilingan ishlar (maqola, tezis yoki asarlar)ning mavjudligi talab etiladi.

4¹. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarining oliy ta'lim muassasasi bosqichi har yili may — iyul oylarida o'tkaziladi.

Tanlovlarning oliy ta'lim muassasasi bosqichi mazkur Nizomga qat'iy rioya qilgan holda, oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan kadrlar tayyorlash yo'nalishlarining xususiyatlarini inobatga olib tasdiqlangan muddatda va tartibda o'tkaziladi.

(4¹-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrda 840-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2026-y., 09/26/840/0012-son)

2-bob. Tanlovlarni o'tkazish

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini tayinlash uchun nomzodlarni ko'rsatish oliy ta'lim muassasalari kengashlari tomonidan, talabgorlarning o'quv va ilmiy faoliyatini ommaviy muhokama qilish asosida amalga oshiriladi.

talabgorlar dastlabki ko‘rib chiqish uchun oliy ta‘lim muassasasi kengashiga quyidagilarni taqdim qiladilar:

(5-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrda 840-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.01.2026-y., 09/26/840/0012-son)

transkript nusxasi;

(5-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrda 840-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.01.2026-y., 09/26/840/0012-son)

dekanat va kafedraning tavsiyanomasi;

ilmiy (ijodiy) ish rahbarining tavsiyanomasi;

ilmiy ishlar ro‘yxati va ularning bosma nusxalari;

tillar kafedrası, tarix kafedrasining suhbat natijalari haqidagi ma’lumotnomalari.

Barcha hujjatlar jildga (papkaga) joylangan holda taqdim etiladi. Muqovada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki nomli davlat stipendiyasi nomi, talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi, fakulteti, bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi, kursi, guruhi ko‘rsatiladi.

6. Oliy ta‘lim muassasalari kengashlari talabgorlarni tanlovlarning navbatdagi bosqichiga tavsiya etish bo‘yicha yashirin ovoz berish orqali oddiy ko‘pchilik ovoz bilan qaror qabul qiladilar.

Ovoz berish jarayonida oliy ta‘lim muassasasining professor-o‘qituvchilari va talabalari ham ishtirok etishi mumkin.

Ovoz berish natijalariga ko‘ra oliy ta‘lim muassasasi kengashi tomonidan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasiga eng ko‘p ovoz olgan uch nafardan (bunda nomzodlar turli tanlov yo‘nalishlari bo‘yicha aniqlanishiga urg‘u beriladi);

nomli davlat stipendiyalariga ajratilgan har bir kvotaga eng ko‘p ovoz olgan uch nafargacha nomzod tanlovning navbatdagi bosqichiga tavsiya etiladi.

7. Oliy ta‘lim muassasasi kengashi qaroriga asosan tanlovlarning navbatdagi bosqichiga tavsiya etilgan talabgorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar va tegishli hujjatlar oliy ta‘lim muassasasining mas’ul xodimi tomonidan Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “my.edu.uz” elektron tizimiga har yili 1 — 15-avgust kunlari kiritiladi.

Bunda talabgorlarning hujjatlari asliga to‘g‘ri ekanligi hamda “my.edu.uz” elektron tizimiga o‘z vaqtida va to‘g‘ri kiritilishi bo‘yicha mas’uliyat oliy ta‘lim muassasasi rektori (filial direktori) zimmasiga yuklanadi.

Talabgorlarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “NEMIS” — Oliy ta‘lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi orqali shakllantiriladi.

(7-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrda 840-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.01.2026-y., 09/26/840/0012-son)

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi stipendiyalar tayinlash haqidagi tavsiyanomalarni yiliga bir marta, har yili 10 — 30-sentabr kunlari ko‘rib chiqadi.

(8-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrda 840-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.01.2026-y., 09/26/840/0012-son)

8¹. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

talabgorlarni saralash vazifasi yuklanadigan tanlov komissiyasi faoliyatini tashkil etadi;

talabgorlarning ta‘lim va ilmiy (ijodiy) tayyorgarlik darajasini baholash maqsadida ishlarni ko‘rib chiqish uchun ekspertlar guruhlarini tuzadi;

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) bilan birgalikda axborot texnologiyalari, O‘zbekiston tarixi, xorijiy tillar bo‘yicha imtihon komissiyalarini tashkil etadi, test topshiriqlarini ishlab chiqadi;

tanlov komissiyasi va ekspert guruhlarining ish tartibini belgilaydi;
tanlov komissiyasi majlislarini o'tkazish muddatlarini belgilaydi;
talabgorlar ekspert guruhlar tomonidan ko'rsatkichlarini baholash natijalaridan norozi bo'lganda, ularning shikoyatlarini ko'rib chiqish bo'yicha 5 nafardan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi faoliyatini tashkil etadi.

8². Talabgorlarning hujjatlari (ko'rsatkichlari) ekspert guruhlar tomonidan ko'rib chiqilib, mazkur Nizomga [ilovaga](#) muvofiq baholash mezonini asosida baholanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va har bir nomli davlat stipendiyalari bo'yicha qaydnomasi rasmiylashtiriladi.

Ekspert guruhi tomonidan har bir talabgorga qo'yilgan ball ekspert guruhi faoliyati yakunlangandan so'ng 24 soat muddatda "my.edu.uz" elektron tizimi orqali talabgorga ma'lum qilinadi.

8³. Ekspert guruhi tomonidan qo'yilgan ballardan (o'z ko'rsatkichlari bo'yicha) norozi bo'lgan talabgorlarga baholash natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 48 soat davomida "my.edu.uz" elektron tizimi orqali apellyatsiya arizasi berish imkoniyati yaratiladi.

Apellyatsiya arizalari apellyatsiya komissiyasi tomonidan arizalar sonidan kelib chiqqan holda, uch kun ichida ko'rib chiqiladi.

Apellyatsiya komissiyasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

Apellyatsiya arizalarini ko'rib chiqishda apellyatsiya komissiyasi talabgorlarning barcha hujjatlarini mazkur Nizomga [ilovaga](#) muvofiq baholash mezonini asosida baholash mezonini asosida har tomonlama o'rganadi.

Apellyatsiya komissiyasi apellyatsiya arizasini ko'rib chiqish natijasi bo'yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

qo'yilgan ballarni o'zgarishsiz qoldiradi;

qo'yilgan ballarni o'zgartiradi.

8⁴. Talabgorlar axborot texnologiyalari, O'zbekiston tarixi, xorijiy tillar bo'yicha Agentlikda (hududlar bo'yicha) maxsus test sinovlari topshiradilar. Bunda:

test sinovlari bo'yicha o'tish ballining quyi chegarasi to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ballning 55 foizi hisoblanadi;

to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ballning 55 foizidan past ball to'plagan hamda test sinovlariga qatnashmagan talabgorlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga tavsiya etilmaydi;

Agentlik bir kun muddatda yakuniy qaydnomalarni test sinovlari natijalari bilan birga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etadi.

(8¹ — 8⁴-bandlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrda 840-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2026-y., 09/26/840/0012-son)

9. Talabgorlarning test sinovlari natijalari va ekspert guruhlarining baholash natijalari umumlashtirilib, ularning yakuniy ballari e'lon qilinadi.

Yakuniy ballar natijalariga ko'ra har bir oliy ta'lim muassasasi bo'yicha ajratilgan kvotalar soniga muvofiq eng yuqori ball to'plagan talabgorlar ro'yxati ekspert guruhlarining bayonnomalariga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyasiga tavsiya etish uchun tanlov komissiyalariga taqdim etiladi.

(9-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrda 840-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2026-y., 09/26/840/0012-son)

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari sovrindorlari ekspert guruhlarining bayonnomalari asosida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida tashkil etilgan tanlov komissiyalari qaroriga asosan aniqlanadi.

*(10-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrda
840-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2026-y.,
09/26/840/0012-son)*

11. Tanlov komissiyalarining qabul qilingan qarorlariga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari sovrindori bo'lgan talabalar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

*(11-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrda
840-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2026-y.,
09/26/840/0012-son)*

3-bob. Stipendiyalarni tayinlash va ularga beriladigan imtiyozlar

12. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'i oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori, ijrochi direktori)ning talabalarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini tayinlash va to'lash haqidagi buyruqlarini rasmiylashtirishi uchun asos hisoblanadi.

Stipendiyalar 1-sentabrdan boshlab bir o'quv yili uchun (talabalar safidan chetlatilganda shu oyga qadar) belgilangan miqdorga qat'iy rioya qilgan holda tayinlanadi.

Nomli davlat stipendiyalari sovrindori bo'lgan talabalarga muayyan ta'lim bosqichida nomli davlat stipendiyalari tanlovlarida qayta ishtirok etishiga ruxsat etilmaydi.

*(12-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrda
840-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2026-y.,
09/26/840/0012-son)*

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarida g'olib bo'lgan talabalarga O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan tasdiqlangan quyidagi guvohnomalardan biri beriladi:

“O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasi sohibi”;

“Beruniy nomli davlat stipendiyasining sohibi”;

“Ibn Sino nomli davlat stipendiyasining sohibi”;

“Navoiy nomli davlat stipendiyasining sohibi”;

“Ulug'bek nomli davlat stipendiyasining sohibi”;

“Imom al-Buxoriy nomli davlat stipendiyasining sohibi”;

“Islom Karimov nomli davlat stipendiyasining sohibi”;

“Bobur nomli davlat stipendiyasining sohibi”;

“Pahlavon Mahmud nomli davlat stipendiyasining sohibi”;

“Abdulla Avloniy nomli davlat stipendiyasining sohibi”;

*(13-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrda
840-sonli qaroriga asosan o'n birinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari
milliy bazasi, 06.01.2026-y., 09/26/840/0012-son)*

“To'lepbergen Qaipbergenov nomli davlat stipendiyasining sohibi”;

“Ibroyim Yusupov nomli davlat stipendiyasining sohibi”.

Guvohnomalar talabalarining o'qish joyida tantanali vaziyatda topshiriladi.

*(13-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustda
384-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2023-y.,
09/23/384/0613-son)*

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi sohibi bo'lgan talabalar bakalavriatni tugatgandan so'ng ikki yil mobaynida, nomli davlat stipendiyalari sohibi bo'lgan talabalar bakalavriatni tugatganidan so'ng bir yil mobaynida tegishli mutaxassislik bo'yicha magistraturaga tanlovlarsiz qo'shimcha davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadilar.

*(14-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrda
840-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2026-y.,
09/26/840/0012-son)*

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

15. Talabalarni kundalik darslarni o‘zlashtirmaganlik, o‘quv intizomini va odob-axloqni buzganlik uchun o‘quv yili mobaynida davlat stipendiyalaridan mahrum qilish oliy ta’lim muassasalari taqdimnomalariga binoan tegishli vazirliklar va idoralar buyruqlari bilan amalga oshirilishi mumkin.

16. Talabalarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga tayinlash bo‘yicha ariza va shikoyatlari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

17. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javob beradilar.

(3-ilovaning matni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-noyabrda 674-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 04.11.2021-y., 09/21/674/1029-son)

Bakalavriat bosqichi talabalari uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari hamda ularni tayinlash tartibi to‘g‘risidagi nizomga

ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga hujjat topshirgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabgorlarning ko‘rsatkichlarini baholash mezonlari

T/r	Ko‘rsatkichlar	Qo‘yiladigan ball	Izoh
1.	Ilmiy-tadqiqot ishlari (ilmiy maqola, tezis va boshqalar)	30 ballgacha	Talabgor tomonidan mustaqil tanlangan asosiy 2 ta ilmiy-tadqiqot ishi inobatga olinadi va har biri 15 ballgacha baholanadi*
	Qolgan ilmiy-tadqiqot ishlari	10 ballgacha	Asosiy tanlangan 2 ta ilmiy-tadqiqot ishidan boshqa barcha ishlari inobatga olinadi va jami 10 ballgacha baholanadi
2.	Erishgan yutuqlari (Davlat mukofoti, xalqaro va respublika fan olimpiadasi hamda ko‘rik tanlovlar g‘olibligi, patent, ixtirolar va boshqalar)	20 ballgacha	Talabgorning tahsil olayotgan mutaxassisligiga mosligiga ustuvorlik beriladi
3.	Til bilish sertifikat (bakalavriat ta’lim yo‘nalishi xorijiy til bo‘lgan taqdirda, boshqa xorijiy tilni bilish sertifikat talab etiladi)	10 ballgacha	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining qo‘shma qarori bilan tasdiqlangan milliy va xalqaro sertifikatlar inobatga olinadi. “B1” darajasidan past darajalar hamda amal qilish muddati o‘tgan sertifikatlar inobatga olinmaydi
4.	Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan O‘zbekiston tarixi, axborot texnologiyalari, xorijiy tillar bo‘yicha o‘tkaziladigan test sinovlari natijalari	30 ballgacha	To‘plash mumkin bo‘lgan eng yuqori ballga mutanosib ravishda hisoblanadi

Izoh.

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasiga talabgorlardan bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga mos mavzuda kamida ikkita e’lon qilingan ilmiy-tadqiqot ishlari (ilmiy maqola, tezis va boshqalar)ning mavjudligi talab etiladi.

2. Quyidagilarga:

ilmiy ishlar, yutuqlar, natijalarga aynan talabanning muayyan ta'lim bosqichi davrida erishganligiga;

ilmiy-tadqiqot ishlarining izchilligiga, yakka mualliflikda hamda nufuzli nashrlarda chop etilganligiga;

ilmiy-tadqiqot ishlari, erishilgan natijalarning talabgor tahsil olayotgan ta'lim yo'nalishiga mosligiga ustuvorlik beriladi.

3. Agar talabgor muqaddam davlat stipendiyasi sovrindori bo'lgan bo'lsa, sovrindor bo'lgan sanadan keyingi davrida erishgan natijalari va ilmiy-tadqiqot ishlari inobatga olinadi.

(ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrdagi 840-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2026-y., 09/26/840/0012-son)